Dizartriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohila Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizimli bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizimli bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyevna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
Maxmudov Mamat Raxmatovich	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
Adolat Xolmatova Muxammadjonovna	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	

O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
Otaboyeva Nodira Qodir qizi	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodikjon Rasuljon o'g'li	

BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIALOGIK NUTQ SHAKLLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Umarova Muhayyo Abdusattor qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti magistri

Mamarajabova Zulfiya Narboyevna

Toshkent kimyo xalqaro universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini badiiy adabiyot vositasida shakllantirishning pedagogik asoslari, samarali metodlari hamda zarur shart-sharoitlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy matnlarning bola nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati, logopedik mashg'ulotlarda ularning qo'llanilishi hamda pedagogik-psixologik yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy rivojlanish, dialogik nutq, badiiy adabiyot, maktabgacha yosh, logopediya, pedagogik shart-sharoitlar, kommunikativ faoliyat.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations, effective methods, and necessary conditions for the formation of dialogic speech in preschool children with speech disorders through fiction. It also highlights the significance of literary texts in the development of children's speech, their use in speech therapy sessions, and the pedagogical and psychological approaches applied.

Key words: speech development, dialogic speech, fiction, preschool age, speech therapy, pedagogical conditions, communicative activity.

Аннотация: В статье анализируются педагогические основы, эффективные методы и необходимые условия формирования диалогической речи у детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями посредством художественной литературы. Также освещается значение художественных текстов в развитии речи детей, их использование в логопедических занятиях, а также педагогические и психологические подходы.

Ключевые слова: развитие речи, диалогическая речь, художественная литература, дошкольный возраст, логопедия, педагогические условия, коммуникативная деятельность.

KIRISH

Bugungi kunda nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilayotgan korrektsion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nutq bolaning ijtimoiylashuvi, tafakkuri va muloqot faoliyatining asosiy vositasi sifatida uning shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Shu boisdan logopedik amaliyotda badiiy adabiyotdan foydalanish nutqni, ayniqsa dialogik nutq shakllarini rivojlantirishda eng tabiiy va ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiyasi uchun zarur pedagogik va psixologik sharoitlar yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy adabiyot asosida olib boriladigan nutqiy rivojlantirish ishlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy adabiyot inson tafakkurining eng yuksak shakllaridan biri bo'lib, u bolaning ruhiy dunyosini boyitadi, hissiy olamini uyg'otadi va muloqotga kirishish ehtiyojini shakllantiradi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bola shaxsining nutqiy, emotsional va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu davrda badiiy adabiyot bolani atrof-muhitni anglashga, tilning tovush, leksik va grammatik tuzilishlarini o'zlashtirishga, fikrni to'liq va ifodali yetkazishga o'rgatadi.

Nutqiy rivojlanish jarayoni murakkab psixologik-pedagogik hodisa bo'lib, unda bola so'z boyligini kengaytirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik shakllarni o'zlashtirish va muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayonda badiiy matnlar – ertak, hikoya, she'r, topishmoq va maqollar tabiiy nutqiy muhitni yaratib beradi. Adabiyotning bunday turlari orqali bola nutqiy faoliyatning barcha komponentlarini – eshitish, tushunish, so'z tanlash, izchil bayon etish va dialogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Psixolog olim L. S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bola rivojlanishining asosiy manbai ijtimoiy muloqotdir. Badiiy adabiyot esa shu muloqotni ma'naviy mazmun bilan to'ldiradi, bola tafakkurini tildan ajralmagan holda shakllantiradi. Shu sababli adabiy matnlarni o'qish, tinglash va muhokama qilish jarayonida bola:

- so'zlarning ma'nosini farqlaydi, ularni kontekstdan tushunadi;
- o'z nutqida yangi so'z va iboralarni qo'llashni o'rganadi;
- fikrini izchil, mantiqan va emotsional tarzda ifodalashga intiladi;
- muloqotda suhbatdoshni tinglash, javob berish va fikr almashish ko'nikmalarini egallaydi.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim xususiyati – nutqiy madaniyatni shakllantirishdagi rolidir. Bolalar asarlaridagi obrazli so'zlashuv, yumor, ijobiy hissiyotlar, qahramonlar orasidagi tabiiy dialoglar bola uchun nutqiy namunadir. Ular orqali bola tildan nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki estetik zavq manbai sifatida foydalanishni o'rganadi.

Logopedik mashg'ulotlarda badiiy adabiyotdan foydalanish esa ikki yo'nalishda foyda beradi:

1. **Korreksion yo'nalish** – nutqdagi nuqsonlarni yumshatish, tovush talaffuzini to'g'rilash, so'z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilishlarni mustahkamlash.
2. **Tarbiyaviy yo'nalish** – bolada muloqot madaniyati, e'tibor, eshitish xotirasi, emotsional sezgirlik va estetik didni shakllantirish.

Masalan, xalq ertaklari bolalarning qiziqishini oshiradi, obrazli tafakkurni faollashtiradi va rolli o'yinlar orqali tabiiy dialoglarni o'rganishga imkon beradi. She'rlar esa ritm, intonatsiya va talaffuzni rivojlantirishda, hikoyalar esa izchil monologik va dialogik nutqni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, badiiy adabiyot orqali bola milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishadi, bu esa nutqni ijtimoiy jihatdan mazmunli qiladi. Til orqali xalq donoligi, urf-odatlar, axloqiy qarashlari bolaning ongiga singadi, bu esa uning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, badiiy adabiyotdan foydalanish jarayoni nafaqat til o'rgatish vositasi, balki shaxsiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir. Bola asarni tinglar ekan, o'zini qahramon o'rnida tasavvur qiladi, ular bilan suhbatga kirishadi, his qiladi va bu orqali ichki nutqdan tashqi nutqqa o'tish jarayoni yuz beradi. Shu tariqa, badiiy adabiyot bola nutqini faol, ifodali va muloqotga tayyor holatga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni shakllantirish jarayoni murakkab va bosqichma-bosqich olib boriladigan pedagogik faoliyatdir. Bu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, tanlangan metodika va o'quv materialining bolaning psixofiziologik xususiyatlariga mosligiga bog'liq. Badiiy adabiyotdan foydalanish esa bu borada eng tabiiy, hissiy va samarali metodlardan biri sanaladi, chunki adabiy matnlar muloqotga o'xshash tabiiy nutqiy vaziyatlarni yaratadi, bola nutqini faol harakatga keltiradi.

Badiiy adabiyot asosidagi metodika tizimli, bosqichli va integrativ xarakterga ega bo'lishi zarur. U nafaqat logopedik mashg'ulotlarda, balki tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Quyida ushbu metodikaning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari tahlil etiladi.

Tayyorgarlik bosqichi (motivatsion va eshituv faoliyatini faollashtirish)

Ushbu bosqichda asosiy maqsad – bolani tinglashga, diqqatni jamlashga, muloqotga kirishishga tayyorlashdir. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish idroki, e'tibor va motivatsiya darajasi ko'pincha past bo'lgani uchun pedagog ularning qiziqishini uyg'otuvchi interaktiv usullardan foydalanishi lozim.



Masalan:

- asar qahramonlari tasvirlangan ko'rgazmali materiallar, illyustratsiyalar, o'yinchoqlar orqali suhbat boshlash;
- asarning nomi yoki qahramoni haqida savol-javob tarzida suhbat olib borish;
- tovushlarni eshitish va ajratish mashqlari (masalan, "qaysi hayvon shovqin chiqardi?" yoki "kim gapiryapti?" o'yinlari).

Bu bosqichda pedagogning nutqi ifodali, hissiy va ravon bo'lishi zarur, chunki bola aynan tarbiyachining nutqiga tayanib, o'zida muloqot ehtiyojini his eta boshlaydi.

Asarni idrok etish bosqichi (adabiy matnni o'rganish va tahlil qilish)

Bu bosqichda bolalar badiiy asarni tinglaydi yoki birgalikda o'qishadi. Asarni ifodali o'qish, dramatizatsiya elementlarini kiritish, ovoz ohangining o'zgarishi bolada hissiy javob uyg'otadi va qahramonlar nutqini eslab qolishga yordam beradi.

Pedagog quyidagi metodlardan foydalanadi:

1. **Savol-javob usuli:** "Bu qahramon nima dedi?", "Nega u shunday qildi?", "Sen bo'lsang, nima derding?" kabi savollar orqali bolaning faol nutqiy ishtirokini rag'batlantirish;
2. **Rollarni taqsimlash:** bolalar kichik dialoglarni qayta ijro etadilar (masalan, "Bo'ri bilan echki", "Bo'g'irsoq", "Qizil shapkacha" kabi ertaklardan lavhalar);
3. **Emotsional ifoda mashqlari:** qahramon nutqini har xil ohangda aytish, his-tuyg'uni tovush orqali ifodalash.

Asar bilan ishlash jarayonida bola nafaqat tinglovchi, balki faol suhbatdoshga aylanadi. Bu esa dialogik nutqning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Mustahkamlash bosqichi (dialogik muloqotni faol qo'llash)

Ushbu bosqichda bola o'zlashtirgan so'z, ibora va nutqiy konstruktsiyalarni mustaqil muloqotda qo'llay boshlaydi. Logoped yoki tarbiyachi tomonidan maxsus nutqiy vaziyatlar yaratiladi:

- o'yinli dialoglar (masalan, "Do'kon", "Bog'da", "Kasalxona", "Qo'g'irchoqlar bilan suhbat");
- sahnalashtirilgan mashg'ulotlar (ertak yoki hikoyadan qisqa sahna);
- juftlikda ishlash mashqlari (bir bola savol beradi, boshqasi javob qaytaradi).

Bu bosqichda dialogik muloqotni rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarga rioya etish muhim:

1. **Nutqiy faollikni rag'batlantirish:** bolani o'z fikrini bildirishga undash, hatto grammatik xatolarga yo'l qo'ysa ham, uni to'xtatmaslik, balki so'ng tahrirlash;
2. **Kontekstli suhbat yaratish:** har bir muloqot voqea, vaziyat yoki harakat bilan bog'langan bo'lishi lozim (bu tabiiy muloqotni ta'minlaydi);
3. **Individual yondashuv:** har bir bolaning nutq nuqsoni turiga (fonetik, fonematik, leksik-grammatik va boshqalar) mos mashqlar tanlash.

Integrativ metodlar va o'yin texnologiyalari

Dialogik nutqni rivojlantirishda badiiy adabiyot bilan o'yin faoliyatini birlashtirish ayniqsa samarali hisoblanadi. Ertak qahramonlarini sahnalashtirish, dramatik o'yinlar, "Ertakni davom ettir" yoki "Qahramon bilan suhbat" kabi ijodiy mashg'ulotlar bola nutqini tabiiy shaklda faollashtiradi.

Shuningdek, multimedial adabiy materiallardan (audiokitoblar, qisqa animatsiyalar) foydalanish bolaning eshituv xotirasini, idrokini va so'zlash tezligini oshiradi. Bu usul logopedik mashg'ulotlarda ayniqsa foydalidir, chunki bola tovush, intonatsiya va pauzani to'g'ri eshitib, ularni taqlid yo'li bilan o'zlashtiradi.

Pedagogik hamkorlik va muhit yaratish

Metodikaning ajralmas qismi bu nutqiy rivojlanish uchun qulay psixologik va pedagogik muhit yaratishdir. Bunda tarbiyachi, logoped va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ota-onalarga quyidagilar tavsiya etiladi:

- har kuni bolaga ertak yoki she'r o'qib berish;
- uy sharoitida "savol-javob o'yinlari" tashkil etish;
- bolaning nutqiy faoliyatini rag'batlantirish (so'zi uchun maqtov, e'tibor).

Bunday tizimli yondashuv bola uchun nutqiy muloqotning tabiiy ehtiyojga aylanishini ta'minlaydi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy adabiyot asosida tashkil etilgan pedagogik va logopedik ishlar natijasida maktabgacha yoshdagi, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda dialogik nutq shakllarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Bu jarayon nafaqat bola nutqining grammatik, fonetik va leksik jihatdan takomillashuviga, balki uning shaxsiy, hissiy va ijtimoiy faolligining ortishiga ham xizmat qiladi.

Metodik jarayonning asosiy natijasi shundaki, badiiy adabiyot orqali bola muloqotda faol ishtirok etishga, fikrini erkin ifodalashga va suhbatdosh bilan o'zaro aloqa o'rnatishga o'rganadi. Dialogik nutqning shakllanishi bolada nafaqat til boyligining oshishiga, balki tafakkur, tasavvur, emotsional his-tuyg'ular, e'tibor va eslab qolish jarayonlarining faollashishiga olib keladi.

Avvalo, badiiy adabiyot asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijasida bolalarda so'z boyligi kengayadi. Ular ertak va hikoyalardagi yangi so'z, ibora va ifodalarni o'zlashtiradi, ularni kundalik nutqida qo'llay boshlaydi. Shu bilan birga, bola nutqida tovush talaffuzi va grammatik tuzilma izchilligi yaxshilanadi. Ifodali o'qish, she'rlarni yod olish, dramatik o'yinlarda ishtirok etish orqali bola talaffuzdagi noaniqliklarni bartaraf etadi, so'zlarni to'g'ri urg'u va intonatsiya bilan aytishga o'rganadi.

Bundan tashqari, dialogik mashqlar va sahnalashtirishlar bolada muloqot ko'nikmasini mustahkamlaydi. Bola suhbatni boshlash, davom ettirish va uni mantiqan yakunlashni o'rganadi. U o'z fikrini ifodalashda suhbatdoshning javobini kutish, uning so'zlariga mos munosabat bildirish, o'z navbatini kutish kabi nutq madaniyatiga oid qoidalarni amaliy tarzda egallaydi. Shu yo'l bilan bola nutqiy faollikni namoyon etadi va ijtimoiy jihatdan faol shaxsga aylanadi.

Metodik ishlarning yana bir muhim natijasi – bu bolalarning hissiy va irodaviy rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishidir. Badiiy asarlarning emotsional mazmuni, obrazlarning hissiy ifodasi bolada hamdardlik, sevgi, quvonch, achinish kabi ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Shu orqali bola muloqotda o'z hislarini so'z bilan ifodalashni o'rganadi, bu esa uning nutqiy ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Metodik jarayonning samarali tashkil etilishi natijasida:

- bolalarda dialogik muloqotga kirishish motivatsiyasi ortadi;
- so'z boyligi va grammatik kompetensiya rivojlanadi;
- intonatsion ifodaviylik, ohang, ritm va pauzalarni to'g'ri ishlatish ko'nikmalari shakllanadi;
- bola suhbatdosh bilan o'zaro fikr almashish, savol berish va javob qaytarish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;
- ijodiy tafakkur, tasavvur va til madaniyati rivojlanadi.

Shuningdek, o'tkazilgan metodik ishlar jarayonida bolalarda o'ziga ishonch paydo bo'ladi. Nutqiy nuqson sababli ilgari muloqotdan chetlashgan bola badiiy adabiyot vositasida muloqotdan zavq olishni, o'z fikrini boshqalarga yetkazishdan qo'rqmaslikni o'rganadi. Bu esa uning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy o'sishida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, badiiy adabiyot vositasida dialogik nutqni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuv natijasida, nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy faoliyatning barcha asosiy komponentlarini – eshitish, tushunish, so'zlash, muloqotga kirishish va emotsional ifodani – kompleks tarzda rivojlantiradi. Bu esa logopedik ta'sirning samaradorligini oshiradi va bola shaxsining to'laqonli nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni badiiy adabiyot vositasida shakllantirish samaradorligi, avvalo, yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu jarayonda qulay psixologik muhit, individual yondashuv va o'quv-tarbiyaviy ishlarning tizimliliigi muhim o'rin tutadi.

- *Birinchidan*, nutqiy muhitni to'g'ri tashkil etish zarur. Har bir mashg'ulotda bolalarning muloqotga kirishish faoliyatini rag'batlantiruvchi vaziyatlar yaratilishi lozim. Tarbiyachi bolalar bilan tabiiy suhbatlar olib borib, ularning so'z bilan fikr bildirishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.
- *Ikkinchidan*, individual yondashuv tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaning nutqiy nuqsoni turi, rivojlanish darajasi va psixologik holati inobatga olinib, mos badiiy matnlar, mashqlar va suhbat uslublari tanlanadi.
- *Uchinchidan*, badiiy asarlarning tizimliliigi va izchilligi ta'minlanishi kerak. Bola yoshiga, idrok darajasiga va qiziqishiga mos asarlar ketma-ketlikda tanlab o'qitilishi, ularning mazmuni orqali nutqiy ko'nikmalar bosqichma-bosqich mustahkamlanishi zarur.



- *To'rtinchidan*, pedagog va logopedning hamkorligi asosiy shartlardan biridir. Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar yagona metodik yondashuvda olib borilganda, natijalar barqaror bo'ladi.

Va nihoyat, oila bilan hamkorlikni ta'minlash ham muhimdir. Ota-onalar bolalarning uy sharoitida ham badiiy adabiyotdan foydalanishlarini, ertak va hikoyalarni tinglash hamda savol-javob tarzida muhokama qilishlarini ta'minlashi zarur.

Shu tarzda yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning muloqot madaniyati va dialogik nutqini samarali rivojlantirishga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu jarayonda badiiy asarlar bolalarning muloqotga kirishish motivatsiyasini oshiradi, ularni faol eshituvchi va gapiruvchiga aylantiradi. Pedagogik shart-sharoitlarni to'g'ri tashkil etish, emotsional qulay muhit yaratish va individual yondashuv asosida ishlash natijasida nutqiy faoliyatda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. G'aniyeva M. Logopediya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1982.
4. Jalolova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
5. Solomatina N. A. Korrektсионная педагогика: razvitiye rechi doskolnikov. – Moskva: Akademkniga, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.